


2020-yil Yanvar oyida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtda xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra 25,7 mingga yaqin faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlardan 15,7 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatmoqda.

2020-yil 1-fevral holatiga korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi, % (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonining 10,8 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,8 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasiga faoliyat ko'rsatayotgan,
kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi, %**



2020-yil 1-fevral holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar ulushi (39,5 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlar bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,6 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxonalar va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,7 % ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-fevral holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 733,8 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,0 % ni tashkil etdi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda moliyaviy xizmatlarga (16,0%), transport xizmatlariga (21,2%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,4%), savdo xizmatlariga (31,3 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.


2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2020-yil yanvar oyida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 111,0 % ga o'sdi.

2019-yilning yanvar oyi davriga nisbatan xizmatlar hajmi 141,5 mlrd. so'mga ko'paydi.

2020-yil yanvar oyida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm




Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari – 35,2 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar – 33,3 mlrd. so'm, transport xizmatlari – 22,2 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar – 19,0 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	733,8	111,0
<i>shu jumladan:</i>		
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	39,4	116,2
Moliyaviy xizmatlar	117,5	130,3
Transport xizmatlari	155,5	105,0
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	146,9	104,3
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	18,4	107,7
Savdo xizmatlari	229,7	104,3
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	23,3	103,0
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	32,0	204,8
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	9,0	114,9
Ijara xizmatlari	20,5	102,6
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	26,5	103,0
Shaxsiy xizmatlar	25,9	102,6
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	9,8	102,2
Boshqa xizmatlar	26,3	103,0

Eng yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (204,8 %), moliyaviy xizmatlar (130,3 %), sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (114,9 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (116,2 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari (107,7 %), transport xizmatlari (105,0 %) xizmat turlarida qayd etildi.


**2020-yil yanvar oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik sohasidagi xizmatlar (102,2 %), shaxsiy xizmatlar (102,6 %), ijara xizmatlari (102,6 %), ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (103,0 %), boshqa xizmatlar (103,0 %), va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (103,0 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020- yil yanvar oyida uning ulushi (31,3 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (21,2 %), moliyaviy xizmatlar (16,0 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,4% egallaydi.


**2020- yil yanvar oyida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %**



2020-yil yanvar oyida savdo xizmatlari hajmi 229,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 104,3 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 35,1 mlrd. so'mga oshdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.



■ Avtomobillar va mototsikllarni savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar

■ Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlar (Avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari)

■ Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiy ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

Yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 39,4 mlrd. so'mni tashkil etdi. 2019-yilning yanvar oyiga nisbatan o'sishi 6,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,9 % ni tashkil etadi.

**2020-yil yanvar oyida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, %**

